

O'QUVCHILARNING TABIATNI ASRAB-AVAYLASHNI PEDAGOGIK YONDASHUV ORQALI YUKSALTIRISH

Urganch Ranch Texnologiyalar universiteti

Maxmudova Sevara Arslon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning tabiatni asrab-avaylashning pedagogik yondashuvlar orqali yuksaltirish va ekologik ongni shakllantirishning muhimligi ta'kidlangan. Tabiatni himoya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas'uliyatni yosh avlodda rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham dolzarb masaladir. Pedagogik yondashuvlar orqali ekologik ta'limni barcha fanlarga integratsiya qilish, amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va tadbirlar yordamida o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi, o'qituvchilar esa nafaqat ta'lim beruvchi, balki o'quvchilarga ijtimoiy mas'uliyatni o'rgatish orqali bir namuna bo'lishlari zarurligi haqida, tabiatni asrab-avaylashni pedagogik yondashuv orqali targ'ib qilish orqali biz kelajak avlodni ekologik jihatdan mas'uliyatli va ongli fuqarolar sifatida tarbiyalaymiz mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiatni asrab-avaylash, ekologik ta'lim, pedagogik yondashuv, ekologik ong, yosh avlod, ekologik mas'uliyat, ekologik etika, resurslardan oqilona foydalanish, atrof- muhitni himoya qilish, ta'lim tizimi, amaliy mashg'ulotlar.

Аннотация: в данной статье подчеркивается важность пропаганды охраны природы через педагогические подходы и формирования экологического сознания. Охрана природы, рациональное использование ресурсов и развитие экологической ответственности у молодого поколения в настоящее время являются актуальными вопросами не только с экологической, но и с социальной и экономической точки зрения. Важно интегрировать экологическое образование во все предметы через педагогические подходы, а также уделять особое внимание развитию экологического сознания у учащихся с помощью практических занятий, проектов и мероприятий. Учителя должны быть не только педагогами, но и примером для учащихся, обучая их социальной ответственности. Пропагандируя охрану природы через педагогические подходы, мы можем воспитать будущие поколения как экологически ответственных и сознательных граждан.

Ключевые слова: охрана природы, экологическое образование, педагогический подход, экологическое сознание, молодое поколение, экологическая ответственность, экологическая этика, рациональное использование ресурсов, защита окружающей среды,

образовательная система, практические занятия, экологические проекты,

экологические проблемы, роль учителя, устойчивое развитие

Abstract: this article emphasizes the importance of promoting environmental protection through pedagogical approaches and the formation of ecological consciousness. Protecting nature, rational resource use, and developing ecological responsibility in the younger generation are currently pressing issues not only from an ecological but also from a social and economic perspective. It is important to integrate environmental education into all subjects through pedagogical approaches and to pay special attention to developing ecological consciousness in students through practical activities, projects, and events. Teachers should not only be educators but also role models, teaching students social responsibility. By promoting environmental protection through pedagogical approaches, we can raise future generations as ecologically responsible and conscious citizens.

Key words: environmental protection, environmental education, pedagogical approach, ecological consciousness, younger generation, ecological responsibility, environmental ethics, rational resource use, environmental protection, educational system, practical activities, environmental projects, ecological issues, role of the teacher, sustainable development

“Ekologiya” grek tilidagi “oikos” va “logos” atamalarining birgalikdagi ifodasidan olingan bolib, “oikos” - uy, yashash joyi, yashash muhiti, “logos” - ta’limot degan ma’noni anglatadi. “Ekologiya” atamasini birinchi bo’lib nemis zoologi E.Gekkel 1866 yilda “Organizmlarning umumiy morfologiyasi” degan kitobida qo’llagan. “Ekologiya” atamasi dastlab tirik organizmlarning o’zaro va o’z yashash muhiti bilan aloqadorligini ifodalash uchun ishlatilgan. Keyinchalik u kishilik jamiyatining atrof muhit bilan aloqadorligini ifodalaydigan bo’ldi. Taraqqiyot va ilmu-fan rivojlanishi bilan “ekologiya” atamasining qo’llanishi ham o’zgarib, ma’nosi kengaydi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo’yar ekan uning oldida o’zi his qilmagan qanchadan-qancha muammolar mavjud. Zero, fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi bir-biri bilan chambarchas bog’liq qator jahonshumul muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday muhim dunyoviy muammolardan biri bu ekologik muammolardir. So’nggi yillarda sayyoramizda inson faoliyati tufayli qator ekologik o’zgarishlar sodir bo’lmoqda: iqlim va ob-havo Yer sharining barcha mintaqalarida sezilarli tarzda o’zgarib bormoqda, suv va tuproqlar tarkibi tobora ifloslanmoqda, o’simlik va hayvonot dunyosi turlari kamayib bormoqda. Bu esa o’z navbatida yer yuzida yashovchi barcha insonlarning sog’ligiga keskin ta’sir ko’rsatmoqda. Butun Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti hozirgi kunda jami kasalliklarning 80 foizga yaqinrog’i ekologik muammolar

oqibati ekanligini qayd etadi. Shunday ekan bunday ekologik xavf-xatarni oldini

olish nafaqat ekologlar, qolaversa, keng jamoatchilik, shu jumladan tibbiy geograflar oldiga ham qator masalalarni kundalang qo'ymoqda. Ma'lumki, ekologiya tushunchasi dastavval 1866-yilda nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan fanga kiritilgan edi. Olim "ekologiya" so'zini barcha tirik mavjudotlarning tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorligini ifoda etuvchi zoologiyaning (biologiyaning) bir tarmog'i sifatda ishlatdi. Ta'kidlash joizki, ekologiyaga tegishli fikrlar Gippokrat, Aristotel singari olimlar asarlarida ham tilga olingan bo'lsada, u fan sifatida anchagina keyinroq yuzaga keldi. Manbalarda takidlanishicha, ekologiyaning rivojlanishi tabiatni o'rganish va tavsiflashdan boshlangan. Bu boradagi dastlabki ish fransuz olimi Jon Anri Faberning "Entomologik esdaliklar" (1879) nomli asari yozilgan davrlarga to'g'ri keladi. Aslida, ekologiyaning fan sifatidagi rivoji ayrim hayvonot yoki o'simlik turlari yashaydigan muhitni, ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishdan boshlangan bo'lib, bu uning shakllanishida dastlabki bosqichdir. Ekologiyaning taraqqiyotini ikkinchi davri ekotizimlar va ularning bir butun tizim sifatida o'rganilishi bilan bog'liq.

Zamonaviy jamiyat ekologik muammolar bilan yuzlashayotgan davrda, tabiatni asrab-avaylash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik ongni rivojlantirish har bir fuqaroning va ayniqsa, kelajak avlodning burchiga aylanishi zarur. Pedagogika esa insonni, uning ijtimoiy, madaniy va ekologik mas'uliyatlarini rivojlantiradigan eng muhim vositalardan biridir. Shu sababli, tabiatni asrab-avaylashni pedagogik yondashuvlar orqali targ'ib qilish, ta'lim jarayonini ekologik nuqtai nazardan yangilash, bu masalani ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlariga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tabiatni asrab-avaylash nafaqat ekologik mas'uliyat, balki ijtimoiy va iqtisodiy masala hamdir. Har bir inson, ayniqsa yosh avlod, tabiatga nisbatan hurmat va g'amxo'rlikni yoshligidan o'rganishi zarur. Bu masalani o'quvchilarga o'rgatish orqali biz ularni kelajakda ekologik jihatdan mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalaymiz. Pedagogik yondashuv tabiatni asrab-avaylashga yo'naltirilgan bo'lishi, bu jarayonda ta'lim metodlari, pedagoglarning yondashuvlari va o'quv materiallari bir-biriga uyg'un bo'lishi kerak. O'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish, tabiatga bo'lgan ehtiyotkorlikni rivojlantirishning asosiy vositasi ta'lim jarayonidir. Pedagogik yondashuvda tabiatni asrab-avaylashni targ'ib qilishning usullari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

Ekologik ta'limni kiritish:

Tabiatni asrab-avaylashni o'rgatishning birinchi qadami ekologik ta'limni barcha fanlarga integratsiya qilishdir. Biologiya, geografiya, kimyo va tarbiya fanlari orqali o'quvchilarga tabiatni saqlashning ahamiyati, ekologik tizimlarning muvozanati va inson faoliyatining tabiatga ta'siri haqida chuqur bilimlar berish kerak. O'quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki amaliy mashg'ulotlar orqali ham ekologik masalalarni o'z hayotlariga tatbiq eta olishlari kerak.

Tabiatni asrab-avaylashni amaliyotda ko'rsatish:

Pedagogik jarayonni faqatgina kitoblar bilan cheklamaslik kerak. O'quvchilarni tabiatga olib chiqish, daraxt ekish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash kabi amaliy mashg'ulotlar orqali tabiatni asrab-avaylashni amaliy o'rgatish samarali yondashuv bo'ladi. Bu kabi faoliyatlar o'quvchilarning ekologik ongini rivojlantiradi va ularda mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Ekologik loyihalar va tadbirlar tashkil etish:

Maktablarda ekologik loyihalar va tadbirlar o'tkazish, tabiatni asrab-avaylashga oid chiqishlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tanlovlar va konkurslar tashkil qilish o'quvchilarda yangicha qarash yaratishi mumkin. Bu tadbirlar o'quvchilarga ekologik muammolarni hal etishga yordam beruvchi amaliy yondashuvni o'rgatadi.

Yoshlarni ekologik mas'uliyatli hayotga o'rgatish

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ekologik mas'uliyatli hayot tarzi haqida axborot berish va ularni shaxsiy hayotlarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga chaqirish kerak. Masalan, energiya resurslarini tejash, suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni kundalik turmush tarziga kiritish zarur.

Ekologik etikani o'rgatish:

Pedagogik yondashuv orqali ekologik etikani tarbiyalash, ya'ni tabiatni sevisht, uni hurmat qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirmaslikni o'rgatish o'quvchilarda ijtimoiy va ekologik mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Tabiatni asrab-avaylashni pedagogik yondashuv orqali targ'ib qilishda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. O'qituvchi ekologik ta'limni nafaqat o'qituvchi sifatida, balki o'quvchilar uchun namuna sifatida ham o'rgatishi kerak. U o'quvchilarga ekologik mas'uliyatni o'rgatish bilan birga, o'zini ham ekologik jihatdan mas'uliyatli tutish orqali yoshlarga ijobiy misol bo'la oladi.

Tabiatni asrab-avaylashni pedagogik yondashuv orqali targ'ib qilish, ekologik ongni shakllantirish va yoshlarni ekologik mas'uliyatli hayot tarziga o'rgatish bugungi kunda juda muhimdir. Bu nafaqat ekologik muammolarni hal etishda, balki jamiyatni yanada barqaror va mustahkam qilishda ham katta ro'l o'ynaydi. Ta'lim tizimida ekologik masalalar o'rganilgan, tabiatni asrab-avaylash esa hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilingan bo'lsa, kelajakda bu tamoyillar barcha yosh avlodlar tomonidan hayotga tatbiq etilishi mumkin. Shunday qilib, pedagogik yondashuv orqali tabiatni asrab-avaylashni targ'ib qilish nafaqat ekologik ta'limni, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar.” Komilova N.K. “Zebo prints” Toshkent-2023
2. “Ekologiya huquqi” R.A.Ikramov, Sh.O.Boboqulov, B.M.Qandov Toshkent-2022 “Yangi Chirchiq Book” nashriyoti-2022.
3. “Ekologik biotexnologiya” X.O‘.Bekchanov, M.X.Bekchanov, M.X.Bekchanova “BOOKMANY PRINT” TOSHKENT-2024.